

## QUYI AMUDARYONING SUG'ORILADIGAN TUPROQLARNING SHO'RLANISHI VA MELIORATIV HOLATINI BAHOLASH

N.Sultanova, S.Abdiyeva, M.Kemolova

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tuproqlar sharoyatida sug'orish rejimi tuproq sho'rlanishi va tuproq tarkibidagi oziqa miqdorlarining o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

**Kalit so'zlari:** *mexanik tarkibi yengil, sho'rlangan tuproqlar, gumus, azot, fosfor, kaliy, mexanik tarkibi yengil, sho'rlangan tuproqlar.*

**Аннотация:** *В данной статье приведены данные о влиянии режима орошения на засоление почвы и изменение содержания питательных веществ в почве в различных условиях.*

**Ключевые слова:** *механический состав лёгкий, засоленные почвы, гумус, азот, фосфор, калий, механический состав лёгкий, засоленные почвы.*

**Abstract:** *This article presents data on the effects of irrigation regimes on soil salinity and the changes in nutrient content under various soil conditions.*

**Key words:** *Light mechanical composition, saline soils, humus, nitrogen, phosphorus, potassium, light mechanical composition, saline soils.*

### KIRISH

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi dehqonchilik tizimida sug'oriladigan sho'rlangan tuproqlarni sog'lomlashtirish, tuproqda tuz to'planish va qayta sho'rlanish jarayonlarini oldini olishning samarali yo'llari, tubdan melioratsiyalash usullarining tayyor, yagona retseptlarining ishlab chiqilmagani bois, sho'rlangan tuproqlarni melioratsiyalash usullari, ular unumdorligi va mahsuldorligini oshirish chora-tadbirlari har bir region, massiv (xo'jalik)larning tabiiy inson xo'jalik sharoitlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi zarur, buning uchun esa Respublikamiz sug'oriladigan yerlarida olib borilgan keng qamrovli izlanishlar natijalari chuqur va har tomonlama tahlil qilinishi, sho'rlangan tuproqlarni hisobga olish bo'yicha xaritalashtirish ishlarini o'tkazib turilishi, shular asosida samarador yechimlar ishlab chiqilishi va amaliyotga tavsiya etilishi nihoyatda muhim.

Mamlakatimizda sug'oriladigan yerlar meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi eng ustuvor yo'nalishlardan biri etib belgilanganligiga e'tibor qaratgan holda, kelgusida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishning zaruriy sharoitlarini yaratish, sho'rlanish va degradatsiyaga uchragan tuproqlarni sog'lomlashtirish, ular unumdorligini tiklash va oshirish uchun meliorativ ob'ektlarni to'g'ri tanlash, bu yerlarda maqsadli tadqiqotlar o'tkazish, meliorativ tadbirlar qo'llashda tuproq xossalari, meliorativ holati, ayniqsa tuproq meliorativ guruhlar va grunt suvlari parametrlarini hisobga olgan holda, ilmiy-amaliy jihatdan yondashib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir.

**Tadqiqot natijalari:** Tuproq sho'rlanishini sodir etuvchi ko'plab omillar ichida yer osti (grunt) suvlari asosiy o'rinni egallaydi, uning "kritik chuqurligi" va "kritik mineralizatsiyasi" tushunchalariga (holatlariga) alohida e'tibor qaratish zarur. Respublikamizning quruq va jazirama issiq iqlimli sug'oriladigan yerlarining tuproq yuzasidan, katta miqdordagi namlikni bug'lanishi, tabiiyki sho'rlanish jarayonini jadallashtiradi, shu boisdan asosiy meliorativ tadbirlar ana shu salbiy jarayonning oldini olishga, uning sug'oriladigan tuproqlar unumdorligi va madaniy o'simliklar hayoti faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini kamaytirishga yo'naltirilishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Tadqiqotlarda Qoraqalpog'iston respublikasining Janubiy zonasi sug'oriladigan yerlarining o'rganilgan Beruniy-Miskin yo'nalishidagi tuproqlar tuzlar miqdoriga ko'ra, yuqorida tavsiflangan massivlar tuproqlaridan sezilarli darajada farq qiladi. Bu yo'nalishdagi shu qatlamda (0-30 sm) qayd qilingan tuzlarning maksimal yuqori miqdori Ellikqal'a tumanidagi "Yangier" massivi o'tloqi-allyuvial tuproqlarida 0,430-1,305% ni Beruniy tumanidagi "Qiyotobod" massivi o'tloqi-allyuvial tuproqlarida 0,880-1,730% ni To'rtko'l tumanidagi "Sho'roxon" massivi o'tloqi-allyuvial va o'tloqi tuproqlarida 0,255-0,295% ni tashkil etadi.

| esma                                                              | Qa                         | C         | H         | CO <sub>3</sub> | l         | O <sub>4</sub> | S         | C         | M         | N | Sho'rlani          |             |
|-------------------------------------------------------------------|----------------------------|-----------|-----------|-----------------|-----------|----------------|-----------|-----------|-----------|---|--------------------|-------------|
|                                                                   | tlam<br>chuqurli<br>gi, sm |           |           |                 |           |                |           |           |           |   | uruq<br>qoldi<br>q | sh          |
| Ellikqal'a tumani “Yangier” massivi - O'tloqi allyuvial tuproqlar |                            |           |           |                 |           |                |           |           |           |   |                    |             |
|                                                                   | 0-<br>28                   | 1<br>,305 | 0<br>,024 | 0<br>,521       | 0<br>,167 |                |           |           |           |   | X                  | k<br>uchli  |
|                                                                   | 28-<br>44                  | 1<br>,045 | 0<br>,021 | 0<br>,413       | 0<br>,138 |                |           |           |           |   | X                  | k<br>uchli  |
|                                                                   | 44-<br>80                  | 1<br>,095 | 0<br>,021 | 0<br>,448       | 0<br>,128 |                |           |           |           |   | X                  | k<br>uchli  |
|                                                                   | 80-<br>112                 | 0<br>,560 | 0<br>,021 | 0<br>,283       | 0<br>,160 |                |           |           |           |   | X                  | k<br>uchli  |
|                                                                   | 0-<br>32                   | 0<br>,165 | 0<br>,033 | 0<br>,025       | 0<br>,021 | 0<br>,015      |           |           | 0<br>,021 |   | -X                 | k<br>uchsiz |
|                                                                   | 32-<br>48                  | 0<br>,180 | 0<br>,030 | 0<br>,032       | 0<br>,025 | 0<br>,015      |           |           | 0<br>,030 |   | -X                 | k<br>uchsiz |
|                                                                   | 48-<br>83                  | 0<br>,270 | 0<br>,040 | 0<br>,042       | 0<br>,082 | 0<br>,035      | 0<br>,021 | 0<br>,002 |           |   | -C                 | k<br>uchsiz |
|                                                                   | 83-<br>105                 | 0<br>,240 | 0<br>,033 | 0<br>,042       | 0<br>,064 | 0<br>,035      | 0<br>,015 | 0<br>,002 |           |   | -C                 | k<br>uchsiz |
|                                                                   | 10<br>5-150                | 0<br>,225 | 0<br>,030 | 0<br>,025       | 0<br>,068 | 0<br>,050      |           |           | 0<br>,003 |   | -C                 | k<br>uchsiz |

**Xulosa** Tuproqlarda tuz to'planish va ularni qayta taqsimlanish jarayonlari hududning geomorfogenezi va gidrogeologik sharoitlari bilan chambarchas bog'liq holda, turli daravjada sho'rlangan bo'lib, hududda sho'rlanmagan va kuchsiz sho'rlangan ayirmalaridan juda kuchli sho'rlangan unumsiz, samarasiz tuproqlardan sho'rxoklargacha, tuzli gorizontlarning tuproq profilida joylashish o'rniga ko'ra esa, sho'rxokli (tuzlarning maksimal miqdorlari ustki 0-30 sm qatlamda joylashgan), yuqori sho'rxoklashgan (30-50 sm da), sho'rxoklashgan (50-100 sm da), chuqur sho'rlangan (150-200 sm da) guruhlarini ajratish mumkin

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tashkuziev M.M., Karimberdieva A.A., Berdiev T.T., Ochilov S.K. Sovremennoe sostoyanie degradirovannix pochv Priaral'ya i texnologii uluchsheniya ix plodorodiya. Upravlenie zemel'nimi resursami i ix otsenka: novie podxodi i innovatsionnie resheniya: sbornik statey: Respublikanskaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya. Moskva-Tashkent:, 2019. – S. 249-252.
2. Turapov I., Kurvantaev R., Piraxunov A., Kutbiddinova O. Vodnie i fizicheskie svoystva oroshaemix pochv Respubliki Karakalpakstan. Qishloq xo'jaligi taraqqiyotining ilmiy asoslari. Toshkent. - 2001. -S. 124-125
3. Tursunov A.A. Izmenenie pochvennogo pokrova sovremennoy del'ti Amudar'i pod vliyaniem opustinivaniya.: Avtoref. dis. ... kand. s/x. nauk. - T.: 1987. – 22.
4. Tursunov L.T., Abdullaev S. Vliyanie sovremennogo antropogennogo opustinivaniya na pochvenno-meliorativnix usloviyax nizov'ev Amudar'i. Materiali nauchno-prakticheskoy konferentsii: Pochvi Uzbekistana i zemel'nie resursi: ratsional'noe ispol'zovanie i zashita ix. 14-16 maya, Tashkent, 2008, s. 49-52/